

Date: 29th October-2025

**O'ZBEKISTONDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLARNING STATISTIK VA
HUQUQIY TAHLILI**

Baratov Barat Raxim o'g'li

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti 5.4 Yurisprudensiya

2024 guruh talabasi

baratovbarat07@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ma'muriy huquqbuzarliklarning turlari, ularning ijtimoiy xavflilik darajasi, shaxslar tomonidan sodir etilish sabablari hamda ularni keltirib chiqaruvchi omillar tahlil qilinib, O'zbekistonda ma'muriy huquqbuzarliklarning huquqiy mohiyati va statistik ma'lumotlar asosida ma'muriy huquqbuzarliklarning turlari, dinamikasi va sabablari ko'rib chiqiladi va xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy o'rganish amalga oshiriladi. Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish zarurati, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini kengaytirish va ma'muriy javobgarlikni qo'llashda adolat va insonparvarlik tamoyillariga rioya etish, huquqiy madaniyatni oshirish masalalari tahlil qilinib, profilaktik choralarni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Ma'muriy huquqbuzarlik, qiyosiy tahlil, statistika, profilaktika, huquqiy madaniyat, ma'muriy jazo

Аннотация: В статье анализируются виды административных правонарушений, уровень их общественной опасности, причины их совершения лицами и факторы, их обуславливающие, рассматривается правовая природа административных правонарушений в Узбекистане, виды, динамика и причины административных правонарушений на основе статистических данных, проводится сравнительное исследование с опытом зарубежных стран. Также анализируется необходимость совершенствования законодательства об административных правонарушениях, усиления мер профилактики, расширения общественного контроля и соблюдения принципов справедливости и гуманизма при применении административной ответственности, повышения правовой культуры, а также предлагаются практические рекомендации по усилению мер профилактики.

Ключевые слова: Административное правонарушение, сравнительный анализ, статистика, профилактика, правовая культура, административное наказание

Abstract: The article analyzes the types of administrative offenses, their level of social danger, the reasons for their commission by individuals and the factors that cause them, considers the legal nature of administrative offenses in Uzbekistan and the types, dynamics and causes of administrative offenses based on statistical data, and conducts a comparative study with the experience of foreign countries. Also, the need to improve the legislation on administrative offenses, strengthen preventive measures, expand public control and compliance with the principles of justice and humanity in the application of administrative



responsibility, and improve legal culture are analyzed, and practical recommendations are put forward to strengthen preventive measures.

Keywords: Administrative offense, comparative analysis, statistics, prevention, legal culture, administrative punishment

Kirish:

Ma'muriy huquqbuzarliklar³³ bu jinoiy darajaga yetmagan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, jamiyat va davlat tartibiga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlardir. O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma'muriy huquq tizimi muhim o'rin egallaydi. Chunki ma'muriy huquqbuzarliklar - jamiyatda tartib-intizomga, boshqaruv tizimining samaradorligiga va fuqarolarning qonunlarga rioya etish madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardandir. Ularning ko'pligi fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasi, davlatning nazorat mexanizmlarini va huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatini aks ettiradi. Ma'muriy javobgarlik institutining mazmun-mohiyati davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida bu borada asosiy manba "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeks bo'lib u jamiyatda tartibni ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari nazarda tutadi. Mazkur mavzuni tanlashdan maqsad - O'zbekistonda ma'muriy huquqbuzarliklarning hozirgi holatini statistik va huquqiy jihatdan tahlil qilish, ularning sabablari hamda bartaraf etish mexanizmlarini o'rganishdan iboratdir.

Metadologiya:

Ushbu tadqiqotda mamlakatimizdagi ma'muriy huquqbuzarliklarning darajasi hamda statistikasi kompleks tahlil qilindi. Maqola tayyorlash jarayonida statistik, qiyosiy-huquqiy, tahliliy yondashuvlardan foydalanildi.

Statistik yondashuv yordamida mamlakatimizdagi huquqbuzarliklarning so'nggi yillardagi o'sish darajasi, huquqbuzarliklar keng qo'llanilgan toifa vakillari hamda yosh ko'rsatkichlari, eng ko'p sodir etilgan huquqbuzarlikning turlari, javobgarlikdan ozod qilinganlar soni kabi asosiy statistik ma'lumotlar tizimli o'rganildi hamda tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy yondashuv yordamida mamlakatimizdagi huquqbuzarliklarni aniqlanish jarayonlari, aniqlangan huquqbuzarliklar uchun esa qo'llaniladigan jazo choralari bilan boshqa rivojlangan davlatlardagi qo'llaniladigan tizimlar hamda jazo choralari, ularning og'ir yengilligi hamda oqibat darajasi o'rtasida qiyosiy o'rganish amalga oshirildi.

Tahliliy yondashuv yordamida mavjud milliy tizimning shuningdek, huquqbuzarliklarni aniqlash tizimidagi kamchiliklar, afzalliklar, huquqbuzarliklarni baholashdagi subyektivlik, qo'llaniladigan jazo choralari maqsadga muvofiqligi va ta'sir doirasi kompleks tahlil qilindi va amaliy takliflar ilgari surildi.

³³ O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining 10-moddasi



Tadqiqot natijalari:

Mazkur yondashuvlar natijasida quyidagi o'rganishlar va ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarning soni oshib bormoqda. Xususan, mamlakatimizda 2020-yilda ma'muriy huquqbuzarliklarga doir 341 mingdan ortiq ish 426 ming kishi ishtirokida ko'rilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib sudlarda ko'rilgan bu toifadagi ishlar soni 613 mingdan oshgan - qariyb ikki barobar. Bu sudlarda 740 ming 994 kishi ishga jalb qilingan.

So'ngi besh yildagi statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak ma'muriy huquqbuzarlikka doir ishlar va shaxslar soni doimiy o'sishga erishgan. Jumladan, 2020-yilda 341 ming 469 ta ishga 426 ming 717 nafar kishi, 2021-yilda 428 869 ta ishga 527 740 nafar kishi 2022-yilda 539 686 ta ishga 652 958 nafar kishi, 2023-yilda 600 966 ta ishga 721 662 nafar kishi, 2024-yilda 613 142 ta ishga 740 994 nafar kishi jalb etilgan, bu esa ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish darajasi katta o'sishga erishayotganligidan dalolat beradi.

2021-2024 - yillarda ko'rilgan ma'muriy huquqbuzarlik ishlari tahliliga ko'ra, shaxslar kesimida erkaklar bilan bir qatorda ayollar soni ham ortib, 100 minglik chegarani kesib o'tgan. Masalan, 2021-yilda 431 ming erkak va 96 ming nafar ayol ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan deb topilgan bo'lsa, 2024-yilda erkaklar 605 mingdan, ayollar soni esa 135 ming nafardan oshgan. Oliy sud tomonidan yosh doirasi ya'ni 18-30 yoshgacha bo'lgan shaxslar kesimi ham alohida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, 2021-yilda 184 ming yoshlar ma'muriy huquqbuzarliklarda ayblangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 264 minggacha oshgan. Hududlar miqyosida eng ko'p ma'muriy huquqbuzarlik ishlari 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra poytaxt Toshkent shahrida ko'rilgan - 95 mingta ishda 113 mingdan ortiq shaxs qatnashgan, keyingi o'rinlarda mos ravishda Toshkent va Farg'ona viloyatlari - 71 ming va 62 ming ish ko'rilgan. Bu uchta hudud 2024-yilda ko'rilgan jinoyat ishlari soni bo'yicha ham top uchlikni tashkil etgan. Eng kam ma'muriy huquqbuzarlik ishlari esa Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida ko'rib chiqilgan.

"Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 23-moddasida berilgan ma'muriy jazo turlaridan 2024-yilda ma'muriy huquqbuzarlik ishlarida sudlar tomonidan eng ko'p qo'llanilganlari bo'yicha statistika ma'lumotlari mavjud bo'lib, unga ko'ra, 379 067 ta - jarima³⁴, 88 047 ta - ma'muriy qamoq³⁵, 25 516 ta - maxsus huquqdan mahrum qilish³⁶, 42 ta - ashyoni musodara qilish, 3 ta - haq to'lash sharti bilan olib qo'yish, 430 ta - haq to'lanadigan majburiy jamoat ishlari, 528 ta - deportatsiya³⁷ kabi jazo turlari qo'llanilgan. Ma'muriy qamoq jazosini qo'llash amaliyoti so'nggi yillarda shiddat bilan oshib bormoqda. Xususan, 2020-yilda 34 ming kishi ma'muriy qamoqqa olingan bo'lsa, 2024-yilda bu raqamlar 88 mingdan oshgan. Oliy sud oltita turdagi keng tarqalgan ma'muriy

³⁴ O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining 25-modda

³⁵ O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining 29-modda

³⁶ O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining 28-modda

³⁷ Deportatsiya - chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish (O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining 29 prim 1-modda).

Date: 29th October-2025



huquqbuzarlik ishlari bo'yicha raqamlarni keltirgan. Ulardan, haqorat qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar 2021-yilda eng ko'p qayd etilgan - 59 128 kishi. 2024-yilga kelib bunday huquqbuzarliklar soni 51 mingtagacha kamaygan. O'tgan yili haqorat qilish bilan bog'liq eng ko'p ishlar - Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida ko'rilgan. Shuningdek, yengil tan jarohati yetkazish bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni ham yillar kesimida kamayib bormoqda - 37 mingdan 24 minggacha. Yana bir jazo turi bu - deportatsiya bo'lib, deportatsiya ko'rsatkichi 2023-yilda 112 kishidan 2024-yilda 528 kishiga oshgani chet ellilar bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar nazoratining qattiqlashayotganini ko'rsatadi.

(Shu bilan bir qatorda) Ma'muriy qamoq jazosi hududlar kesimida eng ko'p Toshkent shahrida qo'llangan - 25 388 kishi, keyingi o'rinlarda tepada qayd etilgan Toshkent va Farg'ona viloyatlari, mos ravishda 13.5 va 9.3 ming kishi. Eng kam ma'muriy qamoq jazosi - Navoiy (1546 kishi), Jizzax (1741 kishi) va Xorazm (1830 kishi) viloyatlarida qo'llanilgan. 2024-yilda ro'yxatga olingan jazo turlari orasida aslida eng katta o'sish mamlakat hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish - deportatsiya jazosi bilan bog'liq va bu bir yilda deyarli besh barobar o'sishga erishgan.

Xususan, eng ko'p qayd etiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar bular, yo'l harakati qoidabuzarliklari bilan bog'liq, 2024-yilda haydovchilar tomonidan qariyb 20 mln.ga yaqin qoidabuzarliklar qayd etilgan. 2023-yilning birinchi uch oyida esa ushbu raqamlar 1.4 mln tani tashkil etgan. Jumladan, 2024-yilda 271 ming shaxs ishtirokidagi 203 mingdan ortiq ma'muriy ishlar tugatilgan. Ularning 6 203 ta holatida huquqbuzarlik hodisasi yoki alomati yo'q deb topilgan. Bundan tashqari, 2024-yilda 94.8 ming kishi qatnashgan 55 mingdan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik ishlari taraflar yarashgani munosabati bilan tugatilgan va ijobiy hal qilingan. Ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha so'nggi besh yillik ma'lumotlar O'zbekistonda bu sohada huquqbuzarlik faoliyatining ortib borayotganini, nazorat va sud tizimi tomonidan ishlov berilayotgan ishlar ko'lami kengayayotganini ko'rsatadi.

Ma'muriy huquqbuzarliklarning ko'payishiga bir necha omillar sabab bo'lmoqda, bularga huquqiy ongning pastligi - aholining qonunlarni bilmasligi yoki ularga befarqligi. Jarimalarning ta'sirchan emasligi - ayrim hollarda jarima summaları profilaktik ta'sir ko'rsatmaydi. Nazorat mexanizmlarining sustligi - barcha hududlarda elektron nazorat tizimlari joriy qilinmagan. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar - ishsizlik, urbanizatsiya³⁸ va migratsiya³⁹ oqibatida ayrim turdagi huquqbuzarliklar ko'paymoqda.

Rivojlangan mamlakatlarga qaraydigan bo'lsak, Xitoy Xalq Respublikasida O'zbekiston Respublikasidan farqli ravishda quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi:

- intizomiy ogohlantirish;
- jarima;

³⁸ Urbanizatsiya - (frans. Utrbanisation, ing. Urbanization, lot. urbanus - shaharga mansub) - jamiyatni boshqarishda shahar rolining o'tirishi jarayonidir.

³⁹ Migratsiya (lot: migratio - ko'chaman, joyimni o'zgartiraman) - aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi.

Date: 29th October-2025

- noqonuniy daromadlarni musodara qilish yoki noqonuniy mulk, qimmatbaho narsalarni musodara qilish;

- ishlab chiqarish yoki biznesni to'xtatib turish to'g'risida buyruq berish;

- ruxsatnomaning amal qilishini vaqtincha to'xtatib turish yoki bekor qilish yoki litsenziyaning amal qilishini vaqtincha to'xtatib turish yoki bekor qilish;

- ma'muriy qamoqqa olish;

- va qonunlar va ma'muriy qoidalar bilan belgilangan boshqa jazo choralari.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlaridan biri Qozog'istonda huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan jazo choralari kerakli tizimga solingan bo'lib ular quyidagilar:

- ogohlantirish;

- ma'muriy jarima;

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki predmeti bo'lgan ashyoni, shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik natijasida olingan mol-mulkni musodara qilish;

- alohida huquqdan mahrum qilish;

- ruxsatdan mahrum qilish yoki uning amal qilishini to'xtatib turish, shuningdek reestrdan chiqarish;

- faoliyatni to'xtatib turish yoki taqiqlash;

- noqonuniy qurilgan yoki qurilgan inshootni majburiy buzish;

- ma'muriy qamoqqa olish;

- chet ellik yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsni Qozog'iston Respublikasidan ma'muriy chiqarib yuborish.

Germaniyada - avtomobil qoidabuzarliklari uchun jarimalar daromad miqdoriga qarab belgilanadi, bu esa adolatli mexanizm hisoblanadi. Yaponiyada esa - jamoat tartibini buzgan shaxslarga nafaqat jarima, balki majburiy huquqiy ma'ruzalar tinglash majburiyati yuklatiladi. Shuningdek, Janubiy Afrika mamlakatlarida bir haydovchi ketma ket bir necha marotaba qoidabuzarlik qayd etadigan bo'lsa, uning haydovchilik huquqi vaqtincha yoki doimiy ravishda cheklanadi. Turkiya, Gretsiya, Qozog'iston kabi rivojlangan davlatlarda ham maxsus tizimli nazorat kameralari o'rnatilishi orqali jinoyat va yo'l harakati hodisalarini aniqlash tez va aniq amalga oshirilib, ularning soni sezilarli darajada kamaytirilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan jazo choralari rivojlangan demokratik davlatlarda qo'llaniladigan jazo choralari bilan mutanosib va insonparvarlik prinsiplariga to'la ravishda mos keladi.

Ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni sonini kamaytirish uchun avvalo, aholining huquqiy madaniyatini oshirish uchun targ'ibot va tashviqot ishlarini kengaytirish. Jarima tizimini moliyaviy imkoniyatlarga qarab differensial belgilash. Elektron nazorat tizimlarini (kameralar, jarima qo'llash mexanizmlarini) kengaytirish. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini shaffoflashtirib, natijalarni ommaga muntazam yetkazib borish hamda jazo usullarini takomillashtirish jarima va ma'muriy jazolarning ijtimoiy muvozanatini ko'rib chiqish - kuchli jazo choralari fuqarolarning huquqiy ongiga muvofiq qo'llanilishi kerak.



Date: 29th October-2025



Ma'muriy huquqbuzarliklar nafaqat qonunchilikni buzish, balki jamiyatning huquqiy savodxonlik darajasi va davlat institutlari faoliyatini ko'rsatib beruvchi mezondir. Statistik ko'rsatkichlar, sabablarga tahlil va xorijiy tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ushbu sohada hali bajarilishi kerak bo'lgan ishlar ko'p. Huquqiy madaniyatni oshirish, elektron nazorat mexanizmlarini kengaytirish va jarima tizimini isloh qilish orqali ma'muriy huquqbuzarliklarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu esa jamiyatda qonuniylik va tartibni mustahkamlashning eng muhim garovidir. Ma'muriy huquqbuzarliklar ichida eng ko'p sodir etiladigan turlaridan biri, avtotransport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish yildan yilga oshib borayotganligi sababli, ularni oldini olish maqsadida rivojlangan xorijiy davlatlarning (Germaniya, Finlandiya) tajribalaridan foydalangan holda mamlakatimizda Vazirlar Mahkamasining 296-son qarori⁴⁰ bilan 2025-yil 1 iyundan yangi 12 ballik tizim joriy etildi. Unga ko'ra, bir yil davomida takroran bir necha marotaba yo'l harakati qoidalarini buzish natijasida jarima ballari 12 ballga yetgan haydovchi kamida 6 oyga haydovchilik huquqidan mahrum qilinadi.

Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima turlari soni jami 70 tadan ortiq bo'lsa, shundan faqat 12 ta modda bo'yicha huquqbuzarlik sodir etilganda jarima ballari yoziladi. Har bir sodir etilgan huquqbuzarlik uchun hisoblanadigan jarima ballarining eng yuqori miqdori ikki balladan oshmasligi qayd etilgan. Agar "qip-qizil" qoidabuzar bo'lishmasa, bir yil davomida 12 ball to'plash oson emas. Ushbu tizimni mamlakatimizda joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad, birinchi navbatda, aholining xavfsizligini ta'minlash, qoidabuzarliklarning oldini olish, takroriy qoidabuzarliklarni hamda baxtsiz hodisalar sonini kamaytirishdan iboratdir. Germaniyada ushbu ball tizimining joriy etilishi YTH bilan bog'liq o'limlar sonini 24 foizga kamaytirdi. Mamlakatimizda ham ushbu tizim joriy etilganligiga ko'p bo'lmasdan huquqbuzarliklarni sodir etish darajasida pasayish kuzatilgan hamda kelgusida ham ko'pchilikni hayotini saqlab qolishiga, qoidabuzarliklarni sezilarli darajada kamayishi uchun xizmat qilishiga kafolat mavjud va ishonilmoqda.

Xulosa:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ma'muriy huquqbuzarliklar soni ortib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayonni chuqur tahlil qilish, sabablarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Asosiy sabablar sifatida aholining huquqiy savodxonligining pastligi, jarimalarning ta'sirchan emasligi, nazorat mexanizmlarining sustligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ishsizlik, migratsiya, urbanizatsiya) ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, yo'l harakati qoidabuzarliklari eng ko'p uchrayotgan ma'muriy huquqbuzarlik turiga aylangan. Germaniya, Yaponiya, Xitoy va Janubiy Afrika kabi davlatlarda ma'muriy javobgarlik tizimi aholining huquqiy ongini oshirish, takroriy huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan. Masalan, Germaniyada jarimalar fuqarolarning daromad darajasiga qarab belgilanadi, Yaponiyada huquqbuzarlar majburiy huquqiy ma'ruzalarni tinglaydi, Janubiy Afrikada esa qoidabuzar haydovchilarning guvohnomasi vaqtincha cheklanadi.

⁴⁰ "Yo'l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tizimini joriy etish to'g'risida" Qaror

Date: 29th October-2025

Ushbu mexanizmlar insonparvarlik tamoyillari asosida ishlaydi va ijobiy natijalar bermoqda. O'zbekiston Respublikasida esa 2025-yildan boshlab joriy etilgan 12 ballik tizim - aynan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanilgan holda ishlab chiqilgan. Bu tizim fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va qoidabuzarliklarning takrorlanishini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, elektron nazorat kameralarini keng joriy etish, jarimalarni differentsiallash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini shaffoflashtirish orqali huquqbuzarliklarni kamaytirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, ma'muriy huquqbuzarliklarni kamaytirish – bu nafaqat jazo kuchini oshirish, balki aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va davlat boshqaruvida ochiqlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu yo'l bilan O'zbekiston jamiyatida qonuniylik, tartib va fuqarolik mas'uliyatini yanada mustahkamlashga erishiladi.

Umuman olganda, ma'muriy huquqbuzarliklar ustidan nazoratni kuchaytirish, adolatli jazo siyosatini yuritish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish O'zbekistonning huquqiy davlat sifatida yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi;
2. <https://www.gov.kz/article/21913?lang=en>; (Qozog'iston Respublikasi elektron tizimi)
3. <http://www.asianlii.org/cn/legis/cen/laws/apl269/> (Xitoy Xalq Respublikasi elektron tizimi)
4. https://codelibrary.amlegal.com/codes/perham/latest/perham_mn/0-0-0-3862 (Amerika Qo'shma Shtatlari elektron tizimi)
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hisobotlari;
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari;

